

AMIR TEMUR BUYUK DAVLAT ARBOBI

Andijon davlat pedagogika instituti

“Ijtimoiy fanlar” kafedrası o’qituvchisi

Keldiyeva Shahnoza Shuhratovna

“Maktabgacha ta’lim” fakulteti

“Logopediya” yo’nalishi 1-bosqich talabasi

Vohidjonova Gulnoza Abdushkur qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Amir temur ko’rsatgan jasoratlari, uning oilasi, shaxsiyati, kelib chiqishi, Temurbekning bolalik va yoshlik yillari, til bilimlari, siyosiy-harbiy kechmishi, ya’ni siyosatga kirib kelishi, hokimiyat boshqaruvi chog’i va boshqa davlatlar bilan siyosiy bog’lanishlari bayon etilgan.

Kalit so’zlar: Temuriylar imperiyasi asoschisi, Kesh shahri, Amir Tarag’ay, Takina xotun, Shohi Zinda majmuasi, Zafarnoma, siyosatga kirib kelishi, Balx.

Amir Temur (1336-yil 9-aprel – 1405-yil 18-fevral) – o’rta asrlarning buyuk turkiy askari va qo’mondoni, Temuriylar imperiyasi asoschisi, Oltin O’rda, Mamluk sultonligi, Dehli sultonligi, Usmonlilar davlati, Kavkaz va Eron davlatlarni yengishi ortidan musulmon olamining to’la yetakchisi, yeri 4,4 mln km² ga yetishgan 14-yuzyillikning eng kuchli davlat quruvchisi, 35 yillik boshqaruvi va yurishlari chog’ida biror urushni yutqazmagan qo’shinboshi, o’tmishda ko’rilgan uchta buyuk harbiy-taktik urush va yurish qo’mondonlaridan biri, Temuriylar uyg’onish davri asoschisi, ilm-fan, me’morchilik, san’at va adabiyot homiysi

Oilasi, shaxsiyati va kelib chiqishi

Temurbek shabon oyining yigirma beshida, hijriy yetti yuz o’ttiz oltinchi yilda (8.04.1336), o’n ikki hayvonli Turk yilligiga ko’ra Sichqon yilida Kesh shahri yaqinidagi Xo’ja Ilg’or qishlog’ida tutilgan. Ayricha amerikalik tarixchi Beatrice Forbes Manz xonim Temurbekning tug’ilgan yilini o’n to’rtinchi yuzyillikning yigirmanchi yillariga to’g’ri kelishini kabi o’z ikkilanishli qarashlarini oldinga surib keladi va bu shubhalanishiga sabab qilib Temurbekning 1336-yilda tug’ilganligi to’g’risidagi yozuvlar uning davridan keyin yozilganini va uning davriga tegishli bir nechta manbalardagi voqealarda Temurbekning yoshi uning 1320-yillar oxirida tug’ilganini ko’rsatishini aytadi (qarang, Tamerlane and the Symbolism of Sovereignty, B. F. Manz). Biroq birorta tarix kitoblarida Temurbekning tug’ilgan yili 1336-yil emas, balki boshqa yil ekanligi to’g’risida bilgi umuman uchramaydi.

Otasi Amir Tarag’ay (o’rta chog’ turkchasi Tarag’ay – qoraquyruq qushi) barlos qabilasining beklaridan biri va qabilaning asosiy 5 ta urug’idan birining yetakchisi edi (qarang, The rise and rule of Tamerlane, B. F. Manz va The Mongol Period B. Spuler). Tarag’aybek Chig’atoy ulusining taniqli beklaridan biri bo’lib, Kesh viloyatida amirlik qilgan. Amir Tarag’ay yillik Ili daryosi bo’yida Xon tomonidan chaqiriladigan yurt beklarining qurultoyiga chaqirilgan va bunday yig’inlarda qoldirmasdan qatnashgan. Butga topinuvchi o’laroq tug’ilgan Tarag’aybek Chig’atoy ulusi orasida birinchilardan bo’lib islom dinini qabul qilgan. Otasi Barqu

Noyondek Tarag'aybek harb va siyosat ishlariga qiziqmagan va asosan islom dinini o'rganish bilan umrini kechirgan. Temurbek tez-tez qabrini ziyorat qiladigan va keyinchalik qabri ustiga maqbara (1373–1374) qurdirgan Shamsiddin Kulol Tarag'aybekning piri bo'lgan.

Onasi Takina Xotun va yoki Takina Mohbegim to'g'risida bilgilar oz. Zafarnoma (Yazdli Sharafiddin)da yolg'iz otigina so'zlanadi. 1403-yilda Temurbek Jenoa, Fransiya, Angliya qirollariga elchi qilib yuborgan, Sultoniya bosh rohibi (archiepiscopus) Johannes de Galonifontibus Takina Xotunning oddiy oiladan ekanini yozadi. Temurli saroyida yozilgan, biroq yozuvchisi aniq bilinmagan Muyizz al-Ansab (Izzatli nasablar) asarida Takina Xotun barlos qabilasi bilan chegaradosh bo'lgan Chig'atoy ulusining Yasaur qabilasidan ekanligi yoziladi. Temurbek bilan yuzma-yuz so'zlashgan Ibn Haldun (1400–01) Temurbek onasini afsonaviy „Avesto“ bahodiri Manuchehrning avlodidan ekanligini aytganini yozadi. Temurbekning siyosiy kitobyozar raqibi Ahmad ibn Arabshoh o'z Ajoyib ul-maqdur fi navaib (fi axbor) (o'zbekcha: Temurdagi taqdirning ajoyibotlar) asarida uning Chingizxonning naslidan ekanligini yozadi. 18-yuzyillikda yuzaga chiqqan Temurbek kimligi to'g'risidagi kitoblarda Takina Xotun Buxoro „Sadr ash-Sharia“ (Shariat qonunlarini izohlovchi)si Ubaydullo Mahbubiyning qizi o'laroq tanitiladi. O'zbek tarixchisi Turg'un Fayziyev o'zining „Temuriylar shajarasi“ (Toshkent, 1995) kitobida Temurbekning onasi to'g'risida „Jangnomayi Amir Temur Ko'ragon“ kitobiga tayangan holda Buxoro ulamolarining eng ulug'i „Sadr ash-Sharia“ning qizi ekanligini bildiradi.

Temurbekning opasi Outlug' Turkon og'o va singlisi Shirinbeka og'o edi. Ular Temurbekdan oldin o'lishgan va Samarqanddagi Shohi Zinda majmuasidagi maqbaralarda ko'milishgan.

Temurbekning til bilimlari

Temurbek o'z ona tilisi chig'atoy (eski turkcha yoki eski adabiy o'zbekcha)cha va forschada so'zlashgan. Temurbek arabcha so'zlasha olmagan va mo'g'ul tilida so'zlasha olganligiga tegisgli bilgilar tortishmali. Uning davrida Turk(Eski o'zbek adabiy tili)cha – so'zlashuv, qo'shin boshqarish, adabiyot va davlat ishlari tili, forsha – huquq, davlat ishlari, adabiyot va so'zlashuv tili, arabcha – din tili bo'lgan. O'rta chog' davlatlariga bo'lganidek Temurbek davlatida ham asosiy huquqiy ishlar – soliqlar yig'ish, g'aznachilik ishlari, moliya ishlari fors tilida olib borilgan. Temurbek o'z yurishlari chog'larida yilyozarlariga kunlik ishlarni Turkcha va forsha tillarda yozib borishlarini buyurgan. Temurbek o'tmishining bilingan 3 ta tamal asaridan 2 tasi, Nizomiddin Shomiy – Zafarnoma, Sharafiddin Ali Yazdiy – Zafarnoma, aynan shu kunlik qo'lyozmalarga asoslanib yozilgan kitoblardir. Rasmiy yozuv turi esa arab alifbosiga asoslangan fors va turk (eski uyg'ur alifbosiga asoslangan o'zbek yozuvi) yozuvlari edi.

Temurbekning siyosatga kirib kelishi

1358-yil Qazag'anbekning o'limidan so'ng Movarounnahrda boshlangan bosh-boshdoqlik chog'ida Temurbek amakisi Xoji Barlos bilan Kesh yerlarini boshqarardi. 1360-yil yanvarda Jeta (Mo'g'uliston) xoni Tug'luq Temur Movarounnahrda yurish qiladi. Tug'luq Temur bilan kelishgan Temurbekka Keshdan Sirdaryogacha bo'lgan yerlar topshiriladi. Tug'luq Temur orqasiga qaytib ketadi. Xizr Yasuriy va Temurbek birga qo'shin yig'adilari. Xoji Barlos esa Yasuriy bilan yovlashadi va unga qarshi yurish qiladi. Tomonlar Oyqor yaqinida to'qnashishadi. Temurbek tomon dushmanni yengadi. Biroq keyinroq Temurbek Yasuriy bilan yovlashadi. Kesh yaqinidagi Surushdagi urushda Temurbek dushmanni yengadi. Temurbek Termiz tomonga qarab yuradi. Ali Jarjariy bilan yovlashadi. Angor yaqinida to'qnashishadi. Temurbek dushmanni yengadi. 1361-yil martda Tug'luq Temur yana Movarounnahrda yurish qiladi. Temurbek yana Tug'luq Temur oldiga boradi va Temurbekka Kesh viloyati va 10 ming kishi topshiriladi. Movarounnahrda xon qilib Ilyosxo'ja, Tug'luq Temurning o'g'li, tayinlanadi.

Tugʻluq Temur oʻz yurtiga qaytadi. Temurbek Husaynbek bilan uchrashadi. Alibek Joni Qurboniy bu ikki bekni tutib qamatadi. 1370-yil Arxangdagi urushda Temurbek Husaynbekni uzil-kesil yengadi. Sayyid Baraka Temurbekka tabl va yalov taqdim etadi. Temurbek Balx tomon yuradi va Balxni qoʻlga olib Suyurgʻotmish Oʻgʻlonni xon qilib koʻtaradi. 1370-yil Temuriylar davlati quriladi^[4].

Amir Temurning hokimiyat boshqaruvi chogʻi

Temurbek Amir unvonini oladi va Samarqandni boshshahar etib belgilaydi. 1370-yil kuzida yirik Qurultoy oʻtkazadi. 1371-yil Amir Temur Jeta tomon 2 bora yurish qiladi. Hevak oʻlkasi va Kot shahri aslan Chigʻatoy ulusining yerlari boʻlsada, biroq u yerlar soliqlarini Xorazmdagi Soʻfiylar yigʻar edi. 1372-yil bahorda bu yerlarni qaytarishni koʻzlab Temurbek Xorazm tomon ilk yurishini qiladi. Temurbek Qot qalʼasini qamal qiladi va qalʼani egallaydi. Temurbek Qovun arigʻining oldida Husayn Soʻfiy bilan urushib dushmani yengadi. Husayn Soʻfiy yengilishdan soʻng Xorazmga qarab chekinadi va oʻsha yerda oʻladi. Temurbek Yusuf Soʻfiy bilan yarashadi va ortiga qaytadi. Qaytish ortidan Yusuf Soʻfiy Kotni talaydi. Temurbek 2-bora Xorazm tomon yuradi. Temurbek qudachilik qilish uchun bu gal Xorazmni urmaydi. 1375-yil yanvarda Temurbek Jeta tomon 3-bora yurish qiladi. Ili daryosi boʻyida urushda Temurbek dushmani yengadi. 1376-yil Temurbek Xorazm tomon 3-yurishini qiladi. Biroq bu yurish chogʻida Sari Bugʻa va Odilshoh yovlik yoʻliga oʻtgani uchun ortiga qaytadi. Keyi 4-bora Jetaga yurish qiladi. Temurbek qoʻshini Jeta xoni Qamariddinni toʻla yengadi. Shu yili toʻngʻich oʻgʻli Jahongir Temuroʻgʻli oʻladi.

Temurbekning boshqa davlatlar bilan siyosiy bogʻlanishlari

Oltin Oʻrda davlati – Toʻqtamishxonning yengilishlaridan keyin Temurbek Oltin Oʻrdada oʻzi xon belgilab keladi va savdo aloqalarini saqlaydi. Oltin Oʻrda Temurbek davlati boʻyinturugʻi ostiga toʻla kirmasada ortiq xavf tugʻdirmaydigan davlatga aylanadi. Oltin Oʻrda davlatining choʻkish davri boshlanadi.

Mamluqlilar davlati – Shomdagi qaqshatqich yengilishdan keyin Mamluqli davlati Temurbekning soʻrovlarini, elchi Atalmishni qoʻyib yuborish va soʻralgan mollarni berish, oʻtaydi. Urushdan oldin va keyin bir necha bora 2 tomondan ham elchilar borib keladi. Maktublar almashiniladi. Temurbek davlati boʻyinturugʻi ostiga kiradi.

Jete davlati – 5 bora ogʻir yurishlardan soʻng Jete yoki Moʻgʻuliston Temurbek davlati boʻyinturugʻi ostiga toʻla kirmasada ortiq xavf tugʻdirmaydigan davlatga aylanadi.

Dehli sultonligi – Dehliidagi qayta tiklanib boʻlmas yengilishdan keyin Temurbek davlati boʻyinturugʻi ostiga kiradi.

Usmonli sultonligi – Anqara urushidagi qaqshatqich yengilishdan keyin Usmonli davlati Temurbek davlati boʻyinturugʻi ostiga kiradi. Usmonli davlatida bir necha yillik Fitrat chogʻi boshlanadi.

Gurji qirolligi – bir necha bora talanishi va bosib olinishi ortidan Temurbek davlati boʻyinturugʻi ostiga kiradi. Yillik belgilangan soliq toʻlashi belgilanadi.

Eron, Afgʻoniston va Kavkazdagi davlatlar – barchasi Temurbek davlati ichiga kiradi.

Rus davlati – Toʻqtamishxonning yengilishi ortidan Temurbekka bir qancha sovgʻa salomlar oʻtaydi. Bir qancha shaharlari tekislanadi. Moskva yagʻmosi esa tarixchilar orasida tortishmali. Koʻplab rus tarixchilari, aynan kim Yakubovskiy. A.Y va Grekov. B. D „Oltin Oʻrda va uning

qulashi“(Zolotaya Orda i ee padenie) kitobida Temurbek Mashkav(Moskva)ni olmaganligi, Mashkav olinganligi va talanganligi to‘g‘risida o‘z kitoblarida bilgi bergan Nazimiddin Shomiy va Sharafiddin Ali Yazdiylarning jug‘rofiya(geografiya) bilimlari Rus geografiyasi borasida yetarli emasligini, ular ikkovlari birdek adashib Ryazanni Moskva deb o‘ylaganliklarini aytib o‘tadilar. Biroq Nizomiddin Shomiy va Sharafiddin Ali Yazdiyda Moskvani va undanda uzoqroqda, shimolroqda bo‘lgan yerlarningda aniq geografik bilimlari borligiga tegishli bir necha bitiklar uchraydi.

Fransiya qirolligi – Usmonli davlati yengilishi ortidan Temurbek davlati bilan savdo aloqalari o‘rnatilishi kelishiladi. Elchilar va maktublar almashinuvi bo‘ladi.

Kastiliya(Ispaniya) qirolligi – Usmonli davlati yengilishi ortidan Temurbek davlati bilan savdo aloqalarini o‘rnatilishi kelishiladi. Elchilar va maktublar almashinuvi bo‘ladi.

Vizantiya imperiyasi – Usmonli davlati yengilishi ortidan Istanbul uchun Temurbekka juzya(din solig‘i)ni o‘taydi. Elchilar almashinuvi bo‘ladi.

Xitoy davlati (Ming imperiyasi – Xitoy bilan savdo aloqalari va elchilar almashinuvi mavjud bo‘lgan. Temurbekning o‘limi ortidan Xitoy yurishi qoldiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ahmad ibn Arabshoh „Ajoyib ul-maqdur fi navaib at-Taymur“
2. R.Shamsutdinov,X.Mo‘minov “O‘zbekiston tarixi”